
Xotin-qizlarga maoshlaridan tashqari daromad topishlariga ham imkoniyat yaratilmoqda

"Beruniy" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi, "Ayollar daftari"da turgan Saidaxon Nuriddinovaning doimiy ish bilan band bo'lish masalasida qilgin murojaati ham ijobiy hal etilib, hududdagi maktabgacha ta'lim tashkilotiga xo'jalik xodimi sifatida ishga joylashtirildi. Shuningdek, hokim yordamchisining tavsiyasiga ko'ra subsidiya asosida tikuv mashinasi ham olib berildi.

Tikuvchilik bilan shug'ullanish ayniqsa, ko'p qavatli uylarda yashayotgan xotin-qizlarga qo'l kelmoqda. Saidaxon ham ko'p qavatli uyda turmush o'rtog'i va o'g'li bilan yashaydi. Ishdan bo'sh vaqtlarida tikuvchilik bilan shug'ullanib, asosan yostiqlar, shuningdek ro'zg'or uchun zaruriy buyumlarni tayyorlamoqda.

Buyurtmalardan tashqari tayyorlagan mahsulotlarini mahalliy bozor hamda savdo do'konlariga tarqatmoqda. Saidaxon maoshidan tashqari har oyda o'rtacha bir milliondan ortiq daromad topmoqda.

2023-09-14 06:20:15